



## TARIXIY ASARLARDA UCHRAYDIGAN ANTROPONIMLAR TADQIQI

Xalilova Nilufarxon Bahromovna,

Qo'qon universiteti, filologiya kafedrasida katta o'qituvchisi.

[nbxalilova@kokanduni.uz](mailto:nbxalilova@kokanduni.uz)

ORCID 0009-0004-2957-7409

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1733>

### MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

**Qabul qilindi:** 16-iyun 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 18-iyun 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-C

**Maqola raqami:** 22

### KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

antroponim, tarixiy asarlar, tarixiy manbalar, onomastika, ism, laqab, kunya, nasab nomlari, lingvistik tahlil, etnomadaniyat, semantika, tarixiy tilshunoslik

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada tarixiy asarlarda uchraydigan antroponimlarning lingvistik, tarixiy, semantik va lingvomadaniy xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tarixiy manbalarda qo'llangan shaxs nomlari, laqablar, kunyalar hamda nasab nomlarining shakllanish tamoyillari, ularning struktur-semantik xususiyatlari va tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Antroponimlarning yuzaga kelishida muayyan davrning siyosiy muhiti, ijtimoiy munosabatlari, diniy qarashlari, milliy urf-odatlar hamda etnomadaniy omillarning ta'siri ochib beriladi. Maqolada tarixiy asarlarda uchraydigan antroponimlarning faqat nominativ birlik sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri va milliy o'zligini ifodalovchi muhim onomastik qatlam ekanligi asoslanadi. Shuningdek, antroponimlar tarkibida uchraydigan turkiy, arabiy va forsiy qatlamlarning o'zaro integratsiyasi hamda ularning tarixiy til taraqqiyotidagi o'zmi misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot davomida tarixiy matnlarda qo'llangan ism va laqablarning semantik yuklamasi, ularning shaxsning ijtimoiy mavqei, kasbi, nasl-nasabi yoki ma'naviy fazilatlarini ifodalashdagi ahamiyati tahlil etiladi. Bundan tashqari, maqolada antroponimlarning tarixiy-lisoniy manba sifatidagi qiymati, ular orqali xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hayoti hamda madaniy aloqalarini o'rganish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tarixiy asarlardagi antroponimlarni lingvistik va etnolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish til taraqqiyoti, milliy qadriyatlar evolyutsiyasi va tarixiy tafakkur jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari tarixiy tilshunoslik, onomastika, etnolingvistika va lingvomadaniyat yo'nalishlarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 16 June 2026

**Approved:** 18 June 2026

**Volume:** 18-C

**Paper number:** 22

### KEYWORDS

anthroponym, historical works, historical sources, onomastics, personal name, nickname, kunya, patronymic names, linguistic analysis, ethnoculture, semantics, historical linguistics

### ANNOTATION

This article comprehensively examines the linguistic, historical, semantic, and linguocultural characteristics of anthroponyms found in historical works. The study scientifically analyzes the principles of formation, structural-semantic features, and historical development stages of personal names, nicknames, kunyas, and patronymic names used in historical sources. It reveals the influence of the political environment, social relations, religious beliefs, national traditions, and ethnocultural factors of a particular period on the emergence and development of anthroponyms.

The article argues that anthroponyms occurring in historical texts should be regarded not only as nominative units but also as an important onomastic layer reflecting the historical memory, cultural thinking, and national identity of a people. Furthermore, the study highlights, through illustrative examples, the integration of Turkic, Arabic, and Persian lexical layers within anthroponyms and their role in the historical development of the language.

The semantic functions of names and nicknames used in historical texts are also analyzed, particularly their significance in expressing an individual's social status, occupation, lineage, or moral qualities. In addition, the article demonstrates the value of anthroponyms as historical and linguistic sources, emphasizing their potential for exploring the worldview, socio-political life, and cultural interactions of a nation.

It is emphasized that the linguistic and ethnolinguistic study of anthroponyms in historical works serves as an important scholarly source for illuminating language development, the evolution of national values, and processes of historical thinking. The findings of the research have both theoretical and practical significance for future studies in the fields of historical linguistics, onomastics, ethnolinguistics, and linguocultural studies.

**Kirish.** Bugungi kunda tarixiy manbalarni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish, ularda aks etgan til birliklari orqali xalqning madaniyati, dunyoqarashi va tarixiy taraqqiyotini tadqiq etish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, tarixiy asarlarda uchraydigan antroponimlar nafaqat shaxslarni nomlash vositasi, balki muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy muhiti, diniy qarashlari, milliy qadriyatlar va etnomadaniy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan muhim lisoniy birliklardir. Shunga qaramay, tarixiy matnlardagi antroponimlarning lingvistik, semantik va lingvomadaniy jihatlarini kompleks tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan.

Globalashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va madaniy merosni ilmiy asosda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda tarixiy asarlardagi antroponimlarni tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Antroponimlar tarkibidagi turkiy, arabiy va forsiy qatlamlarning o'zaro munosabatini aniqlash, ularning til taraqqiyoti hamda milliy madaniyat rivojidadagi o'rnini belgilash tarixiy tilshunoslik, onomastika va etnolingvistika fanlari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shu jihatdan, tarixiy asarlarda qo'llangan antroponimlarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish, ular orqali

xalqning tarixiy tafakkuri, ijtimoiy hayoti va madaniy aloqalarini yoritish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Boburning "Boburnoma" memuar asari ham tarixiy antroponimiyaning noyob manbasidir. Ko'plab olimlarimiz bu asardagi kishi nomlarining miqdorini turlicha ko'rsatgan. R.Rasulov 1800 dan ko'proq kishi ismlari uchrashini aytgan. [5, 44] T.Nafasov esa mazkur asardagi kishi nomlarini 1406 ta deb hisoblagan. [6, 39] "Boburnoma" dagi kishi ismlarini 500 dan ortiq deb hisoblagan H.Qudratullayev bu miqdorni Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanidagi qahramonlarning soni bilan tenglashtirgan. D.Hoshimova ham antroponim va toponimlarning sonini 1560 dan ortiq ekanligini aytgan. M.Mo'minova "Boburnoma" asarida 1614 dan ortiq kishi ismlari uchrashini ta'kidlaydi.

Undan so'ng 1822-yilda Fazliy Farg'oniy (Abdulkarim Namangoniy)ning "Umarnoma" asari fors tilida she'riy usulda yozilgan. Asar 1823-yilda Mushrif Isfaragiy, ya'ni Mirzo Qalandar tomonidan nasriy yo'l bilan Amir Umarxonning topshirig'iga ko'ra "Shohnomayi nusratpayom" ("Shohning g'alabalari haqida xabar beruvchi kitob") nomi bilan qayta ishlangan. Mazkur asarlar ham Qo'qon xonligi va xonlari tarixiga bag'ishlangan ilk tarixiy asarlar hisoblanadi. Bulardan tashqari,

Dilshodi Barnoning tarixiy-epizodik karakterdagi “Tarixi muhojiron” asari, Uvaysiyning “Voqeoti Muhammad Ali”, Mutribning “Shohnomayi Devona Mutrib”, Muhammadhakimxon to’raning “Muntaxab at-tavorix”, Avazmuhammad attor Xo’qandiyning “Tarixi jahonnamoyi”, Mullo Shavqiy // Shamsiyning “Jangnomayi Xudoyorxon”, Niyoz Muhammad Xo’qandiyning “Tarixi Shohruxiy” (“Ibratul-xavoqin”), Mirzo Olim Maxdum hojining “Tarixi Turkiston”, Is’hoqxon Junaydullox’ja Ibratning “Tarixi Farg’ona”, Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asarlari ham aynan Qo’qon xonligi tarixiga oid qimmatli manbalardir.

Mirzo Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiyning “Ansob us-salotin va tavorix al-xavoqin”, Muhammadaziz ibn Muhammadrizo Marg’iloniyning “Tarixi Aziziy”, Muhammadyunosjon Toibning “Tarixi Aliquli amirlashkar” asarlarida ham Qo’qon xonligi tarixiga doir muhim tarixiy ma’lumotlar aks etgan.

Qo’qon tarixnavislik maktabining yirik manbasi bu – Muhammadhakimxon ibn Ma’sumxon to’raning “Muntaxab at-tavorix”, ya’ni “Saylangan tarixlar kitobi”dir. Ushbu asarni Enver Xurshut maxsus o’rgangan. Bundan tashqari, “Muntaxab at-tavorix” asari va uning muallifi to’g’risida Abdulla Qodiriy, A.A.Semyonov, A.Qayumov, A.Muxtorov, B.Ahmedov, Sh.Vohidov singari olimlar ham qimmatli ma’lumotlar berganlar.

Asar fors-tojik tilida 1259/1843-yilning yozlarida Kitob va Shahrisabzda yozib tugatildi. Bugungi kunda “Muntaxab at-tavorix” asarining 12 ta nusxasi bor. Ular O’zbekiston, Tojikiston va Rossiya mamlakatlarining qo’lyozmalar xazinasida saqlanadi.

Tarixchi Muhammadhakimxon minglar hukmronligi, ya’ni Qo’qon xonligi tarixini hikoya qilibgina qolmay, Buxoro amirligi, uning ichki siyosiy ahvoli, amirlari haqidagi muhim ma’lumotlarni hamda Buxoro – Qo’qon xonliklarining o’zaro munosabatlarini ham izchil yoritgan. Bundan tashqari, asardan muallifning qo’shni mamlakatlarga sayohatlari tafsiloti, esdaliklari ham o’rin olgan.

Sh.Vohidovning qayd etishicha, akademik A.Qayumov Muhammadhakimxonning “Muntaxab at-tavorix” asarini Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si bilan tenglashtirgan. [7, 158] Qo’qon tarixnavisligida mazkur asar o’zining original tarixiy voqealarga boyligi, fikrlar isboti uchun ma’lumot va masallardan unumli foydalanilganligi, Sharq shoir va adiblarining she’riy asarlaridan parchalar keltirilganligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

“Muntaxab at-tavorix” asarida Irisqulibiy ibn Do’stqul bahodir, Fozilbek ibn Norbo’tabiy, Xonxoja ibn Yusuf Alixoja, Akmal Xo’qandiy, Abdurahmon bahodir, Bobo devonbegi, Boybo’ta bahodir qalmoq, Lashkar qo’shbegi, Muhammadrahim devonbegi, Musulmonquli cho’loq kabi jami 192 ta tarixiy antroponimik birlik, jumladan, 15 ta otasim, 8 ta nisba, 78 ta laqab, 10 ta ayollar ismi, 81 ta erkaklar ismi berilgan. Chunonchi, Humo ko’k (Qo’qon xoni amir Umarxonning oti), Hamdam ko’k (Qo’qon xoni Muhammadalixonning oti), Davlat to’ruq (asarda aytilishicha, amir Umarxon tomonidan jiyani, ya’ni asar muallifi Muhammadhakimxon to’raga in’om qilingan ot) kabi zoonimlar ham berilgan.

Qo’qon tarixnavisligining keyingi sara namunalaridan biri zamonasining eng fozil-u donishmand olim va shoiri Mullo Niyoz Muhammad Xo’qandiy (taxminan 1804/1805-1877/1889)ning “Tarixi Shohruxiy” (asarning birinchi fasli nomidan olingan) nomi bilan shuhrat topgan “Ibratul-xavoqin”(“Xonlarga ibrat”) asaridir. Mazkur asar tarixshunoslikda eng ko’p tadqiq etilgan manbalardan biri hisoblanadi.

Niyoz Muhammadning bobosi G’aribdo’st Qo’qon xoni Norbo’taxon (1770-1798) qo’shinida xizmat qilgan bo’lib, o’zi ham xonlarning harbiy yurishlarida qatnashgan. Shu boisdan Qo’qon tarixida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, janglar va boshqa ma’lumotlarning aynan ishtirokchisi sifatida bayon etgan.

Asar 1871-72/1889-1890-yillarda o’zbek va tojik tillarida Xudoyorxonning topshirig’i bilan yozilgan bo’lib, unda Qo’qon xonligining tashkil topishidan to XIX asrning 70-yillari boshlarigacha bo’lgan davr yoritilgan. Asar tojik tilida o’zbek tiliga professor Shodmon Vohidov tomonidan tarjima va tabdil qilingan. Asar ko’plab tarixshunoslar tomonidan o’rganilgan, lekin asarning lisoniy qirralari tadqiq etilmagan.

Bizning hisobimizga ko’ra, “Ibratul-xavoqin” (“Tarixi Shohruxiy”) asarida Qo’qon xonligiga oid 110 ta ism, 135 ta laqab, 22 ta otasim, 8 ta taxallus, 10 ta nisba kabi antroponimik birliklar qo’llangan.

Manbada antroponimlardan tashqari tarixiy toponimlar xususida ham muayyan ma’lumotlar bayon etilgan. Jumladan, Namangan viloyatining To’raqo’rg’on tumanidagi Shahidon oykonimining nomlanish motivlari yorqin ochib berilgan: “Kuffor ahli ketgach, shu joyga yaqin qishloq ahli kelib shahidlarga janoza o’qib dafn etdilar. Shu mavzeni hozir Shahidon deydilar. Katta bir qishloq bu yerda bino bo’lgan”. [1, 349]

Yoki hozirgi Andijon viloyatidagi tarixiy Chinobod oykonimi xususida quyidagicha ma’lumot berilgan: “Aslida bu ariqning qazish

ishlarini Chin sarkor degan bir qipchoq turib boshqargan ekan. Binobarin, **Chinobod** nomi bilan mashhur bo’lgan”. [1, 186]

Mirzo Olim Maxdum hojining “Tarixi Turkiston” asari ham Qo’qon xonligi tarixiga oid muhim manbalardan biridir. Bu asar 1915-yilda yozilgan bo’lib, uning 1-jildida Qo’qon xonligining yuzaga kelishidan tugatilgan vaqtgacha bo’lgan davr yoritilgan, 2-jildida esa Buxoro va Xiva xonliklari tarixi qalamga olingan. Asarda Qo’qon xonligi tarixiga doir 232 ta antroponimik birlik qo’llangan.

Muhammadaziz ibn Muhammadrizo Marg’iloniyning “Tarixi Aziziy” asari ham Qo’qon xonligini o’rganishda alohida qimmatga ega yozma manba sanaladi. Muallifi hayoti davomida ko’rgan-bilganlarini, esdaliklarini, mahalliy xalqdan, haqiqatgo’y qariyalardan eshitganlarini jamlagan. Uning otasi Muhammadrizo xonlar xizmatidagi kishi, saroyga yaqin mulozimlardan bo’lganligi bois ham manbaga bo’lgan ishonchimiz kuchli. Bundan tashqari, bu asarning o’ziga xos jihati shundaki, muallif Qo’qon xonligiga tegishli turli voqealarning bevosita ishtirokchisi, guvohi bo’lgan kishilardan eshitganlarini yozib borgan va tarixiy haqiqatni batafsil yoritib berishga harakat qilgan. Masalan, “Hosil kalom, Norqul yasovul so’ziga qaraganda, Ulug’nahr ko’tarma qirg’og’i ostidan chiqqan suv to’xtamagandan so’ngra, suv to’xtasin deb, bir necha adad nomi To’xtasin degan odamlarni Ulug’nahr ostidagi yerlarga ko’mib tashlagan ekanlar”. [2, 112]

Asar 5 bob, 166 fasldan iborat bo’lib, jami 436 betni tashkil etadi. Qo’qon xonligi haqidagi ma’lumotlar faqat oxirgi 2 bobda, ya’ni to’rtinchi va beshinchi boblarda bayon etilgan. To’rtinchi bobda Farg’ona mamoliki, ya’ni sobihi taxt hazrati xonlarining bergan yorliqlari, 222-236-betlardagi maxsus nomlanmagan beshinchi bobda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Qo’qon xonligida ro’y bergan siyosiy voqealar, Xudoyorxonning oxirgi marta taxt tepasiga kelishi hamda davlatning Rossiya tomonidan bosib olinishiga oid ma’lumotlar keltiriladi.

“Tarixi Aziziy”ning yagona nusxasi muallifning o’zi tomonidan ko’chirilgan bo’lib, O’zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar xazinasida saqlanmoqda. [3, 207]

Asarda aynan Qo’qon xonligiga doir 124 ta antroponimik birlik uchraydi. Antroponimlarning asosini xonlar, xonzodal, shahzodal va malikalarning hamda boshqa davlat amaldorlarining ism va laqablari tashkil etadi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda Qo’qon xonligi davriga oid ayollar ism va laqablarining lingvokulturologik xususiyatlarini o’rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiy-qiyosiy metod asosida tarixiy manbalarda uchraydigan ayollar antroponimlari o’zaro taqqoslandi hamda ularning shakllanishidagi tarixiy omillar aniqlandi. Tavsifiy metod yordamida ismlarning lug’aviy asoslari, semantik ma’nolari va antroponimik indikatorlari izohlandi. Shuningdek, lingvokulturologik tahlil metodi orqali ayollar ismlarida mujassam bo’lgan milliy-madaniy qarashlar, estetik tasavvurlar, ijtimoiy mavqe va gender xususiyatlari yoritildi. Struktur-semantik tahlil asosida antroponimlarning tuzilishi, komponentlari hamda ularning ma’no munosabatlari o’rganildi. Tadqiqot jarayonida “Muntaxab ut-tavorix”, “Ibrat ul-xavoqin”, “Tarixi Turkiston” kabi tarixiy manbalardan foydalanilib, ulardagi antroponimik birliklar kartotekasi shakllantirildi. Olingan materiallar zamonaviy o’zbek antroponimikasi bo’yicha ilmiy qarashlar bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi.

**Natijalar.** Is’hoqxon Junaydullox’ja Ibratning “Tarixi Farg’ona” asari ham Qo’qon xonligi tarixini o’rganishda qimmatli va ahamiyatga molik asar hisoblanadi. Asarning tarkibi so’zboshidan so’ng, Xo’qand shahri bunyod etilishidan boshlab, har bir podshohning hukmronlik davri alohida bobda izchil keltiriladi: asri Norbo’taxon, Olimshoh ibn Norbo’taxon asri, asri Umarxon jannatmakon Norbo’taxon va boshqalar.

O’zbek tilida, odatda, erkaklar va ayollar ismlar farqlanadi, manbalardagi ba’zi ismlarda shunday farq sezilmaydi. Masalan, Marjonqizboy – marg’ilonlik savdogar: Yana Eski Marg’ilonda **Marjonqizboy** otliq katta ahli tujor ma’ruf kishi bor ekan. (T.Aziziy, 89) Marjonqiz – qizlarga qo’yiladigan ism, lekin -boy indikatorini jinsni o’zgartirgan.

Yoki Uluxxon – amir Olimxonning qizi: Amir Olimxonning uch nafar o’g’il farzandi bor bo’lib, birinchisi mag’firatli shahid shahzoda Shahrux, ikkinchisi Otaliqxon nomi bilan tanilgan mag’firatli shahid Ibrohimxon, uchinchisi Murodixon edi. Yana uchta muhtaram qizi bor edi: Oyimxon, **Uluxxon** va Ofotboxon. (Muntaxab., 335)

Go’zal dodxoh – Mallaxonning sarkardalaridan. Mallaxon o’z sarkardalarini davlat arkonlari bilan yig’ib, ularning maslahatlarini bilan o’sha vaqtda Andijon voliyi bo’lgan Olimbek degan bir qirg’izni Andijon kattalaridan Homidxo’ja mirzaboshi, To’raxo’ja eshon, **Go’zal dodxoh** voli ponsad va shunga o’xshash ulug’lar bilan Qurtqa yo’li orqali yubordi. (Ibr.xavoqin, 215)

Qo'qon xonlari ismlarini ham nominatsion-motivatsion jihatdan shunday guruhlash mumkin:

Diniy-totemistik (bag'ishlov ismlar). Farzandni biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ehsoni deb tushunish natijasida chaqaloqqa o'sha taxmin qilingan, e'tiqod etilgan narsalar nomi ism qilib berilishi natijasida bag'ishlov ismlar guruhi paydo bo'lgan. Bag'ishlov ismlarda bolaning dunyoga kelishini turli ilohiy kuchlarga, diniy e'tiqodlar, qadimiy udumlarga bog'lab talqin qilish asosiy o'rin tutadi.

Istak ismlar. Istak ifoda etuvchi ismlar (istak-ismlar)ning asosiy mohiyatini ism beruvchilarning bolaga qaratilgan turli tilaklari tashkil qiladi. Bunda bolaning ulg'ayib, yaxshi inson bo'lib yetishishini xohlash asosiy o'rin tutadi.

Tasviriy (tasvirlovchi) ismlar – bola dunyoga kelgan paytda yuz bergan xilma-xil tabiiy hodisalar, mo'jizalar, chaqaloq badanida mavjud bo'lgan notabiiy holatlar yoki bolaning ko'rinishidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ifoda etish ko'zda tutilgan ismlar. Qayd qilingan jihatlarni ism orqali tasvirlash maqsadi bolani turli kasalliklarga yo'liqishdan asrash, bevaqt o'limdan himoya qilishdir.

1. **Hukmdorlarni ifodalovchi nomlar tarkibiy tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli antroponimlar guruhi** mansub ism + unvon nomi modelida shakllangan va qo'llangan: Shohruhbiy, Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Abdurahmonbiy, Erdonabiyy kabi.

Mazkur antroponimlar ma'noviy jihatdan laqablar sirasiga mansubdir.

2. **Hukmdorlarning laqablar tarkibidagi biy, bek, xon kabi tarixiy unvon nomlari** sohibining unvoni, mansabi, xonlar avlodiga mansubligi kabi ensiklopedik axborotlarni ifodalagan hamda hukmdorlar ismlari turkumiga xos uyqashlikni ifodalagan.

O'zbeklarning ming qabilasi (urug'i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmas edi. Xonlikda Buxoro amirligida bo'lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda Shayboniylar davrida qisman islohot qilgan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo'lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo'lida bo'lgan.

Olimxon davrigacha (1798y.) ming urug'i boshliqlari XIX asrning boshlarida biy unvoni bilan hokimiyatni boshqarganlar. Olimxon 1805-yilda o'zini rasman xon deb e'lon qildi. Xon unvoni bilan hokimiyatni boshqargan Umarxon (1810- 1822-yy.) 1818-yilda o'zini "amir ul-muslamin" deb e'lon qildi.

1822-yilda Muhammad Alixon ham xon unvoni bilan taxga o'tirgan. Xon avlodlari xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to'ra deb atalganlar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakka hokimlik bo'lib, xonning o'zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lsa-da, ma'lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo'shin boshliqlarining xonga ta'siri kuchli bo'lgan. Bunga Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo'lgan davrini (Xudoyorxon davrida, 1844-1852yy.) yoki Aliqulning amirlashkarlik va vazirlik davrini (Sulton Sayidxon, 1863-1865 yy.) misol qilib keltirish mumkin. Bu holat xonning siyosiy kuch-qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga hamda ma'lum ijtimoiy guruhlar faoliyatiga bog'liq bo'lgan, deyishga asos bo'ladi. Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo'lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo'riq yerlar, ko'l-u anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to'ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma'muriyat, qo'shinlar va qo'shin boshliqlari, asosan, soliqlar hisobidan rag'batlantirilgan. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, xon saroyida mingboshi boshchilik qiladigan Kengash tuzilgan bo'lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko'rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi. Qo'qon xonligida, asosan, Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798-1842-yy.) davlat boshqaruvi va davlatchilik, ichki va tashqi siyosat ancha barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Ammo XIX asrning o'rtalariga kelib Qo'qon xonligi inqirozga uchray boshlaydi. Tadqiqotchilar ushbu inqirozning asosiy sabablari sifatida o'troq xalq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi qarama- qarshiliklarni, o'zaro nizo va urushlarni, xon taxti uchun olib borilgan kurashlarni, Buxoro amiri bilan bo'lgan nizolar va dushmanliklar, saroy amaldorlarining xoinliklari kabilarni ko'rsatadilar. Bularning natijasida iqtisodiy hayotda taraqqiyot pasayib, ijtimoiy tarqoqlik kuchayib bordi va davlat inqirozga yuz tutdi.

Xon – turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdorlar unvoni. Dastlab qabila sardori, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan.

Xon (ot) – turkiy xalqlar va mo'g'ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatida viloyat va shahar hokimi, Mo'g'ul feodal imperiyasida ulus boshlig'i xon deb atalgan. Mo'g'ullar imperiyasi

inqirozidan so'ng tashkil topgan davlatlarda oliy hukmdor nasab jihatidan Chingizxonga qarindosh bo'lsa, xon, podshohlik qilmagan chingiziylar esa sulton deb yuritilgan. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonlari ham o'zining kelib chiqishini Chingizxonga bog'lagan va shuning uchun ham ismiga xon rutbasini qo'shib yuritgan.

Xon – turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni. Dastlab qabila sardori, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va xorazmshohlar davrida xon viloyat, shahar hokimi yoxud darajasiga ko'ra amir yoki malik lavozimlariga nisbatan yuqori hisoblangan, ayni paytda, mamlakat boshlig'i sultonga tobe bo'lgan turkiy boshliqni bildirgan.

Mo'g'ul imperiyasiga asos solgan Temuchin Chingizxon unvonini qabul qilgan. Imperiya hududida tashkil topgan ulus hukmdorlari ham xon deb nomlangan.

Chingizxon vafotidan so'ng, saltanat taxtiga o'tirgan chingiziylarga qoon unvoni berilgan. Mo'g'ul hukmronligi davrida Eronda nomusulmon hukmdorlar xon, musulmon hukmdorlar esa, sulton deb atalgan. Temuriylarda Chingizxon sulolasiga daxldor shaxslar xon unvoni bilan yuritilgan. Shayboniylarda xon hukmdor yoki taxt vorisini, sulton esa shahzodani ifodalagan. Safaviylar davrida xon unvoni viloyat boshliqlari – amirlarga berilgan va ular o'z rutbalariga ko'ra, 3 tabaqali zodagonlar sifatida e'tirof etilgan.

Qo'qon va Xiva xonligi hukmdorlari ham o'zlarini xon deb atashgan. Bu nom ularning chingiziylar bilan qarindoshlik rishtalari mavjudligiga ham ishora hisoblangan. Qo'jarlar davlatida (XIX a.) turli darajadagi harbiy va ma'muriy amaldorlar, Hindistondagi musulmon davlatlarida turli martabadagi mansabdorlar ham xon deb yuritilgan.

**Muhokama.** Qo'qon xonligi davriga oid antroponimlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tarixiy antroponimlar xalqning milliy tafakkuri, estetik qarashlari, ijtimoiy munosabatlari hamda madaniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim til birliklari hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlangan antroponimik materiallar Qo'qon xonligi davrida ayollar nomlash tizimi an'anaviy sharqona madaniyat, diniy qarashlar va milliy urf-odatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida ayollar ismlarining asosiy qismi go'zallik, nur, ulug'lik, nafosat, hurmat va oliynasablik semalarini ifodalovchi lug'aviy birliklar asosida yasalganligi aniqlandi. Ayniqsa, oy, moh, o'fob, xurshid kabi kosmonimik birliklar ayol go'zalligining poetik ramzi sifatida faol qo'llangan. Bu esa sharq xalqlarida ayol obrazining ko'proq yorug'lik, latofat va go'zallik tushunchalari bilan bog'langanligini tasdiqlaydi.

**Muhokama** jarayonida ayollar ismlarida -oyim, -niso, -xon, -bonu, -poshsha kabi antroponimik indikatorlarning faol ishtiroki kuzatildi. Mazkur indikatorlar ism egasining ayol jinsiga mansubligini ifodalash bilan bir qatorda, uning jamiyatdagi mavqei, oliy tabaqaga mansubligi va unga nisbatan ehtiromini ham bildirgan. Shu jihatdan antroponimik indikatorlar tarixiy davr ijtimoiy munosabatlari va gender qarashlarini o'rganishda muhim lingvistik vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, tarixiy antroponimlarning katta qismi qo'shma tarkibli ekanligi aniqlandi. Ular ikki yoki undan ortiq lug'aviy birliklarning birkuvi asosida hosil bo'lib, semantik jihatdan murakkab va boy ma'no qatlamiga ega. Bu esa Qo'qon xonligi davri antroponimiyasining yuksak badiiy-estetik tafakkur mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari tarixiy ayollar ismlarida variantdorlik hodisasi mavjudligini ham tasdiqladi. Ayrim ismlarning fonetik va semantik variantlari tarixiy manbalarda parallel qo'llangan bo'lib, bu holat lahjaviy farqlar, yozuv an'analari hamda davr til xususiyatlari bilan izohlanadi. Mazkur hodisa o'zbek tarixiy antroponimiyasining dinamik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Laqablarning shakllanishida esa urug'-qabila nomlari, ijtimoiy kelib chiqish, oilaviy mansublik va tarixiy mavqe muhim rol o'ynaganligi kuzatildi. Mingoyim, Kenagas oyim kabi laqablar nafaqat shaxsni nomlash, balki uning jamiyatdagi o'rnini belgilash vazifasini ham bajargan. Bu esa tarixiy laqablarning etnografik va sotsiologik jihatdan ham qimmatli ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Tadqiqot davomida Qo'qon xonligi davriga oid ayollar antroponimlari tarkibida arabcha, fors-tojikcha hamda o'zbekcha lug'aviy qatlamlarning o'zaro uyg'unlashgani aniqlandi. Bu esa xonlik davridagi til va madaniyatlararo aloqalarning kuchli bo'lganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, milliy antroponimik tizimning o'ziga xos jihatlari ham saqlanib qolganligi kuzatildi. Mazkur tadqiqot o'zbek tarixiy antroponimikasining hali yetarlicha o'rganilmagan qatlami — tarixiy ayollar ismlari va laqablarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish orqali ilmiy muomalaga yangi materiallarni olib kiradi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida antroponimika, lingvokulturologiya, gender lingvistikasi hamda tarixiy leksikologiya yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ибратул хавокин / Ниёз Муҳаммад Хўқандий; (Таърихи Шаҳрухий): Худоёрхон авлодлари тарихи / Шоҳрухбек Умаров. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 349 б.
2. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азий: (Фаргона чор мустамлакаси даврида) // Сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, Д.Сангирова; Масъул муҳаррир: А.Қаюмов/. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 112 б.
3. Воҳидов Ш. XIX – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши: Тарих фан. док... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА Шарқшунослик институти, 1998. – Б. 207.
4. E. Begmatov. O'zbek ismlari izohi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – 608 b.
5. Расулов Р. Бобур – ўзбек тилининг софлиги учун курашувчи // Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари: Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Андижон, 1993. – Б. 44.
6. Нафасов Т. Бобур – номшунос // Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари: Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Андижон, 1993. – Б. 39.
7. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 158.
8. F.Musayeva. Antroponimlarda jins tushunchasining ifodalanishi // O'zbek tili va adabiyoti. – 2012. – №3. – B. 80–84.
9. R.Xudoyberganov. O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 24 b.